



## “O‘ZBEK XALQ HARAKATLI O‘YINLARI” VA ULARNI QO‘LLASH USULLARI

Fazilova Nazokatxon Mansurxo’ja qizi

«Maktabgacha ta’lim» kafedrasи katta o‘qituvchisi

Toshkent shahridagi Puchon universiteti

Sayfidinova Aziza Tolibovna

Lingvistika: ingliz tili 2-kurs magistranti

Farg'ona Davlat Universiteti

[Say838670@gmail.com](mailto:Say838670@gmail.com)

Aminjonova Zulfiya Muqimjonovna

Quvasoy shahar Maktabgacha ta‘lim bo‘limi tasarrufidagi

13-sonli DMTT tarbiyachisi

Toshkent Puchon universiteti 2 bosqich talabasi

[gafurovazulfiya95@gmail.com](mailto:gafurovazulfiya95@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola, avvalo, milliy mentalitetimizni va milliy urfatlarimizni o‘zida jamlaydigan o‘zbek xalq o‘yinlari, ularning jamiyatimizda va yosh avlodni tarbiyalashda tutgan ahamiyati haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, maqolada o‘zbek xalq harakatli o‘yinlarini bog’cha tarbiyalanuvchilariga qay tarzda samarali o’rgatish, bolalarni o‘yinlarga qiziqtirish va aynan shu o‘yinlar orqali bolalarga milliyligimizni chuqurroq anglatish nazarda tutiladi. O‘zbek xalq harakatli o‘yinlari o’tmishda ajlodlarimizning kundalik turmush-tarzi nimadan iborat ekanligini o‘z ichiga olibgina qolmay, maktabgacha ta’lim-tarbiyada zamonaviy jismoniy tarbiya madaniyatini shakllantirishda ulkan ahamiyatga egadir.

**Kalit so’zlar:** xalq milliy o‘yinlari, jismoniy madaniyat, Vatanga muhabbar ruhi, milliy qadriyatlar, halollik

“UZBEK FOLK ACTION GAMES” AND METHODS OF USING THEM



**Fazilova Nazokatkhan Mansurkhoja qizi**

Senior teacher of the «Preschool Education» department

Puchon University in Tashkent

**Sayfidinova Aziza Talibovna**

Master's degree, Linguistics: English, 2<sup>nd</sup> course student

Fergana State University

[Say838670@gmail.com](mailto:Say838670@gmail.com)

**Aminjanova Zulfiya Mukimjanovna**

Teacher of the Preschool Education

Department of Kuvasoy city, No. 13

2nd stage student of Tashkent Puchon University

[gafurovazulfiya95@gmail.com](mailto:gafurovazulfiya95@gmail.com)

**Abstract.** This article, first of all, informs about Uzbek folk games, which embody our national mentality, national traditions, and their importance in our society and in educating the young generation. Also, the article implies how to effectively teach Uzbek folk movement games to kindergarten children, to make children interested in games, and through these games to give children a deeper understanding of our nationality. Uzbek folk movement games not only include the daily lifestyle of our ancestors in the past, but also they have a great importance in the formation of modern physical education culture in pre-education schools.

**Key words:** national games, physical culture, patriotic spirit, national values, honesty



Albatta, mustaqillik bizga ko'p narsa berdi, u tufayli ko'plab «darvozalar»ga yo'llar ochildi. Mustaqillik sharofati bilan milliyligimiz qaytdi, bu ayniqsa xalqning milliy o'yinlari va mashqlari, sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqlarda namoyon bo'ldi. Ilgarilari keng omma ishtirok etgan Navro'z bayramlari,

sayillar, to'ylar xalq o'yinlari, jismoniy mashqlar, umuman milliy sport turlarisiz o'tkazilmagan. Afsuski, urush davrlarida mamlakatda ular butunlay esdan chiqib, unutilayozdi, shuning uchun ularni izlash va tiklash o'z xalqini va millatini e'zozlagan har bir kishining burchi bo'lib kelmog'i kerak. Bu hayrli ish esa bugungi kunda davlat siyosati darajasiga yetkazildi.

Ushbu milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish va yosh avlodga yetkazish bo'yicha qilingan sa'y-harakatlar muhtaram prezidentimizning<sup>11</sup> «Kelajak bog'chadan boshlanadi» degan purma'no so'zlarida ham o'z ifodasini topdi. Darhaqiqat, aslida vatanparvarlik, el-yurtga fidoyilik bir qarashda oddiy, lekin hayot talabi bo'lgan ana shunday dolzarb ishlardan boshlanadi.

Bu o'yinlarni doimiy va muntazam qo'llash yaxshi narija bermoqda, albatta, bolajonlarni sog'lom, baquvvat chaqqon, kuchli qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Jismoniy tarbiya nuqtai nazaridan ularni o'rganish, tadbiq etish shu kunning va kelajak avlodni tarbiyalashda eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda.



<sup>11</sup> Yangiliklar «O'zbekiston» Shavkat Mirziyoyevning ayollarga bayram tabrigi, 08.03.2018



tarbiyasiga ijobiy ta'sir etishi muqarrardir.

Ushbu jarayonda tariximizdan me'ros bo'lib qolgan o'zbek xalq milliy o'yinlarini hayotga tadbiq etishga kengroq yo'l ochib berilishi, uni ommaviy tus oldirilish, oilada maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktablarda, dam olish joylarida, har xil marosim va bayramlarda uni tashkillashtirish; o'sib kelayotgan yoshlar

Jismoniy tarbiya xalqning urf-odatlarida, udum va rasm-rusumlarida shakllanib, ming yillar davomida rivojlanib, takomillashib kelgan. Xalq milliy o'yinlari ming yillar davomida bizgacha etib kelgan milliy xalq o'yinlari «Otda chopish», «Qiz quvlash», «Uloq», «Kamonda o'q otish», «Chillak», «Oq suyak», «Soqqa», «Besh tosh», «Kurash», «Tortishmachoq», «Bo'ron», «Mindi» kabi o'yinlar orqali murg'ak bolalarda

- botirlik
- epchillik
- tezkorlik
- muvozan'atni saqlash

• qaddi-qomatni shakllantirish kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishda juda samarali rol o'ynaydi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy harakatli o'yinlar orqali bolalarni mashq qildirish quyidagi ijobiy aqliy sifatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

- odob-axloq
- topqirlilik
- ong osti rivoji
- xotira
- diqqatning rivojlanishi kabi xislatlarni sayqal toptirishda va albatta sog'liqni mustahkamlashda samarali vosita bo'lib kelmoqda.

Xalq milliy harakatli o'yinlari, raqslari va sport turlari singari o'zining bitmas-tugalmas bilim va tajriba sarchashmasiga ega. Shu boisdan milliy harakatli o'yinlarni



o'rganish, keng jamoatchilik asosida tadqiq qilish, ularni bolalarning jismoniy madaniyati jarayoniga tadqiq etish, ayni muddaodir.

Milliy harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishning o'ziga xos tomonlari mavjud. Shuning uchun ham, o'yining nozik tomonlarini bilishning ahamiyati kattadir.

Chunki xalq o'yinlari shunchaki biolalarni sog'lomlashtirishga qaratilgan emas, ular yosh avlodga eski qadriyatlarni yetkazish jarayoni bilan ham bog'liqdir, shuning uchun ham xalq o'yinlarini o'tkazish jarayonini eski odatlarda qanday bo'lsa, xuddi shunday usulda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xalq harakatli o'yinlarini tashkillashning o'z me'zoni bo'lib, ular quyidagichadir.

- O'yinni boshlash uchun qur'a tashlash
- O'yinni tamomlash
- Rag'batlanirish

Chunki o'yin mazmunini to'liq ochib beradigan o'ziga xos xususiyatlarini bilmasdan turib sog'lomlashtirish, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni, jismoniy sifatlarni (tezkorlik, chidamlilik, kuch, chaqqonlik va boshqalarni) tarbiyalab bo'lmaydi. Xalqning mehr qo'ri bilan yaratilgan har bir o'yini, o'yining umrboqiyligi, unga qanday munosabatda bo'lishiga ham bog'liq. Binobarin, o'yin har bir xalqning qalb changlari, hayol tashvishlar va quvonchlarni, turmush tarzini, xususiyatlarini belgilaydi. Uni saqlab, e'zozlab, me'yoriga etkazib o'ynay bilish faqat shu xalq vakiligagina xosdir. Birorta millat o'zgalar o'yinini, ularchalik zavq-shavq bilan, ko'tarinki ruh bilan o'ynay olmaydi. Sababi har bir millat o'ziga xos uslubga, xususiyatga ega. Bu esa shu millatga ona tabiat tomonidan berilgan in'omdir, ne'matdir. Uni ko'r-ko'rona o'zgartirish mumkin emas, o'zgartirishlarni turmushning o'zi taraqqiyot, rivojlanish, turmush tarzidan kelib chiqib kiritib boradi.

**O'yinni boshlash.** O'yinni boshlash jarayoni, albatta, ko'pincha komandalar yoki yakka shaxslarni o'zlariga nom tanlash jarayoni bilan bog'lanadi. Bunda albatta tarbiyachining roli katta ahamiyatga ega bo'lib, bolalarga asosan o'tmishimiz, milliyligimizni yodga soladigan nomlarni «Alpomish», «Barchinoy», «Chaqqonlar», «Epchillar» kabilarni tavsiya qiladilar. O'ynash bilan birgalikda bolalar bu nomlarning

etimologiyasiga qiziqish bildiradilar, sevimli multfilm qahramonlari kabi xotirada saqlaydilar.

**O'yinni boshlash uchun qur'a tashlash.** Ko'pchilik ota-onalar farzandiga qanday ta'lif-tarbiya berishni puxta o'ylaydilar, yomon illatlar o'r ganmasin deb omma oldiga chiqarishga cho'chiydilar, farzand kelajagi haqida tashvishlanadilar, bolasini halol, rostgo'y inson bo'lishini xohlaydilar.



Xalq harakatli o'yinlarining asosiy shartlaridan biri qur'a yoki chek tashlash esa bo'lajak o'yinning haqqoniy, shiddatli, qizg'in o'tishiga kafolat beradi, g'irromchilikni oldini oladi va aynan yuqoridagi ota-onani tashvishlantirgan savollarga javob beribgina qolmay, bolaning

tarbiyasida ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Milliy xalq harakatli o'yinlarini boshlash uchun, asosan, chek tashlashning to'rt xil usulidan foydalilanildi:

- 1) og'zaki;
- 2) biror buyumni tashlash;
- 3) biror buyumni yashirish;
- 4) sanoq termalari.

Zamonaviy dunyoda PUBG,



Contor, ZUMA kabi bir xil o'yinlardan zerikkan bolalar uchun ushbu xalq o'yinlari, qur'a tashlash faoliyati va xattoki qur'a so'zining o'zi ham juda qiziq tuyuladi va jarayon bolani tamomila bolani o'ziga qamrab oladi.

**O'yinni tamomlash** jarayoni eng hayajonli jarayon bo'lib, bunda bolalarga turli sovrinlar va medallar berilishi va yoki har bir jamoaga turli nominatsiya ("eng chaqqon jamoa") taqdim etilishi mumkin. Ayniqsa, yakkalik o'yinlarda g'olib bo'lgan



bolakayning qo'lini yuqoriga ko'tarish bolaning murg'ak qalbida o'zgacha iftixor uyg'otadi.

Eng asosiysi, ushbu harakatli o'yinlar ko'pincha sharoit va maxsus o'yin quollarini tanlamaydi, ular asosan og'zaki nutqqa va jismoniylikka asoslanadi. Shuningdek, deyarli barcha o'yinlar o'g'il bolalar o'rtasida ham, qiz bolalar o'rtasida ham birdek sevib o'ynaladi. Ularning aynan maktabgacha ta'lim muassasalari uchun asos qilib olinganligida ham o'ziga xos maqsad bo'lib, bolalar kichik yoshligidan Vatanga muhabbat, qadriyatlarimizga ehtirom ruhida tarbiya topishlidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirzayeva, D. (2019). THE CONCEPT OF "FRIENDSHIP" IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTIC CULTURE. Мировая наука, (11), 29-32
2. Mirzaeva, D. (2021). THE ROLE OF PAREMIA IN THE SYSTEM OF NATIONAL CULTURAL HERITAGE. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(3)
3. Mirzayeva, D. I., & Sayfidinova, A. T. (2022). NABOTOT OLAMINING FRAZEOLOGIK BIRIKMALARINING QIYOSIY TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 681-687.
4. Usmonxo'jayev T.S., Xojayev.F. Harakatli o'yinlar. - T., 1992.
5. Usmonxo'jayev T.S, Meliyev X. Milliy harakatli o'yinlar. - T., 2000.
6. Normurodov A N. O'zbek milliy o'yinlari. - T., 1999.
7. Usmonxo'jayev T.S., X o ja y e v F. 1001 o'yin. - T., 1990.